

ROSSIYA IMPERIYASI DAVRIDA FARG‘ONA VODIYSIGA PAXTA SANOATINING KIRIB KELISHI VA UNI VILOYAT HAYOTIGA TASIRI

Adashaliyev Azizbek Zafarjon o‘g‘li
Namangan muhandislik-qurulishi
instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasi
stajyor-o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingandan keyin Farg‘ona viloyati qishloq xo‘jaligidagi o‘zgarishlar xususan, paxta sanoati rivojlanishi va uni viloyat hayotiga ta’siri haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: qishloq xo‘jaligi, paxta sanoati, sug‘orish tizimi, amerika navi, mahalily nav, desyatina, zavod-fabrikaю

Аннотация. В данной статье говорится об изменениях в сельском хозяйстве Ферганской области после оккупации Российской Империей, в частности о развитии хлопковой промышленности и ее влиянии на жизнь региона.

Ключевые слова: сельское хозяйство, хлопковая промышленность, ирригационная система, американский сорт, местный сорт, десятина, фабрика.

Abstract. This article talks about the changes in the agriculture of Fergana region after the occupation by the Russian Empire, in particular, the development of the cotton industry and its impact on the life of the region.

Key words: agriculture, cotton industry, irrigation system, American variety, local variety, desyatina, factory.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, Vatanimiz va xalqimizning betakror tarixi haqida, “Barchamizga ma’lumki, har bir suveren davlat o‘zining betakror tarixi va madaniyatiga egadir. Bu tarix, bu madaniyatning haqiqiy ijodkori, yaratuvchisi esa haqli ravishda shu mamlakat xalqi hisoblanadi. O‘zbek xalqining necha ming yillik tarixida qanday murakkab davrlar, og‘ir sinovlar bo‘lganini barchamiz yaxshi bilamiz”[1.5], - deb ta’kidlagan. Ana shunday murakkab va o‘gir davrlardan biri bu tariximizdagi Rossiya imperiya mustamlakachilik davridir.

Turkiston istilo qilingan dastlabki vaqtdan boshlab chor Rossiyasi o‘lkani boylik orttirish manbai deb bildi. Turkiston o‘lkasi Rossiya imperiyasining sanoatini muntazam xom ashyo bilan ta’minlab turish maqsadida paxtachilik, qishloq xo‘jaligining sanoatbop mahsulot beradigan sohalarini rivojlantirish asosiy masala sifatida ko‘rildi. Shuning uchun chor ma’muriyati o‘lkada paxtachilik sanoatini rivojlantirish uchun mablag‘larini ayamadi. Paxta yakkaxokimligini o‘rnatish maqsadida Turkistondan Rossiyaga yuboriladigan paxtadan butunlay boj olinmaydigan bo‘ldi. 1879- yildan esa boj yig‘imi har bir pud paxtadan 40-50 tiyin miqdorida belgilandi [2.276]. Turkiston o‘lkasida asosiy paxta yetkazib beruvchi hududlardan biri bu Farg‘ona viloyati edi. Viloyatda paxta sanoatini rivojlantirish uchun imperiya ma’muriyati barcha zaruriy choralarni ishga soldi. 1875-yilda qabul qilingan va faqat Farg‘ona viloyatida qo‘llanilgan “Ijtimoiy o‘lpon va yer masalalari bo‘yicha qoidalar to‘plami”ga ko‘ra, hokimiyat idoralari nafaqat xususiy mulk, balki vaqfga tegishli yerkarta ham egalik qilishi belgilandi [3.14].

Ma’lumki, Turkiston, jumladan Farg‘ona qishloq xo‘jaligi barcha tarmoqlari rivojlanishi sun’iy sug‘orish ishlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Ayniqsa, paxtaning serhosil bo‘lishi, paxta maydonini kengaytirish, qo‘riq erlar o‘zlashtirish va bu yerkarta yangi paxta maydoniga aylantirish ishlari yangi sug‘orish bazalarini vujudga keltirishni talab qiladi[4.22]. Rus injener, geolog-irrigatorlari Sirdaryo, Qoradaryo, Norin daryolari atroflarida yangi kanallar qurish soxasida katta qidiruv ishlarini olib bordilar. Masalan, 1888-yilning may oyida “Ulug‘nog‘or” kanali Jillin boshchiligidagi geolog irrigatorlar tomonidan to‘liq o‘rganishga kirishildi va uning sug‘orish imkoniyatlari kengaytirildi. Kanal rekonstruksiya qilinishi natijasida xonlik davrida 70 desyatina yerni sugarish mumkin bo‘lgan bo‘lsa, endi 200-220 desyatina yerni sug‘orish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Farg‘ona vodiysidagi eski ariqlar kengaytirildi. Norin, Sirdaryo va Qoradaryo bo‘ylariga nasoslar o‘rnatildi, artezan suvlaridan foydalanish tavsiya etildi. XIX asrning oxirlarida Farg‘ona tarixida birinchi marta motorlar yordamida daryolardan suv chiqarish va

shu asosda qo‘riq erlarni o‘zlashtirish sohasida muxim ishlar qilindi. Turkistonda bunday nasoslar 99 ta bo‘lib, 78 tasi Farg‘ona viloyatiga joylashtirilgan edi.

1893-yilda Turkistonda savdo-sanoat ishlarini yuritish uchun mavjud sharoitlar bilan tanishgani Toshkentga kelgan O‘rta Osiyo temir yo‘l ekspeditsiyasi boshlig‘i M.Fyodorov, Turkiston general-gubernatori A.B.Korolkov nomiga 1893-yil 16-oktyabrdagi yuborgan № 6475 sonli xatida, o‘lkadagi asosiy iqtisodiy vazifa – paxtachilik sohasini rivojlantrishda irrigatsiya tizimini tutgan o‘rni va paxta ekini maydonlarini kengaytirishning imkoniyati masalalariga o‘lka ma’muriyati rahbarlarini munosabati xususida ma’lumot taqdim etishlikni so‘ragan. Ushbu xat bo‘yicha, Turkiston general-gubernatori kanselyariyasi irrigatsiya qismining alohida topshiriqlar bo‘yicha amaldori I.Petrov tomonidan tayyorlangan ma’ruza, 1893-yil 19-noyabrdagi № 62 raqami bilan qayd etilgan bo‘lib, unda barcha sug‘oriladigan yerlardan aholi qishloq xo‘jaligi ekinlari, asosan paxta etishtirish uchun foydalanishi tufayli joriy yilda hatto, asosiy oziq-ovqat mahsuloti bo‘lgan bug‘doyni yetishmasligi sezilgani ma’lum qilingan[5.132]. Yuqorida ma’lumotlardan ham ko‘rinib turibdiki, viloyatda paxta maydonlarini kengaytirish uchun imperiya hukumati zaruriy oziq-ovqat yetishmovchiligi kuzatilganiga ham e’tibor bermagan, paxta maydonlari esa, yildan-yilga kengaytirib borilgan.

Paxtachilikning rivojlanishida chor xukumati o‘lka iqlimi va tabiiy sharoitiga mos keladigan paxta navlarini olib kirish masalasiga alohida e’tibor bergen. Farg‘ona vodiysida, 1879-yilda birinchi marta yangi navlar Namangan uyezdining Chust qishlog‘ida ekib ko‘rildi. Biroq birinchi tajriba ijobjiy natija bermadi. Chunki ekilgan paxta navlari (seya island) serhosil bo‘lsa-da, kechpishar edi. 1880-yilga kelib, Chust uyezdida ko‘rgazmali tajriba uchastkasi tashkil etilib, paxtaning 20 dan ortiq amerika navlari (king, upland, triumph, russells, florida) sinab ko‘rildi. Bulardan upland va king navlari Farg‘onaning obi-havosiga mosligi, mahalliy paxta navlariga nisbatan serhosil ekanligi aniqlandi. Tajriba uchastkasida ekilgan mahalliy paxta navlari o‘rtacha har desyatinadan 35-40 pud, amerika navlaridan esa 70-75 pud hosil olindi. Yangi paxta navlarini mahalliy paxta

navlariga nisbatan afzalligi aholi o‘rtasida targ‘ibot qilina boshlandi. Lekin dehqonlar bu yangilikka dastlab shubxa bilan qaradilar. Dehqonlarni qoniqtirmagan asosiy sabablardan biri, Amerika paxtasini qo‘l chig‘irigi bilan tozalashda chigitning toza ajralmasligi edi. Rus mu’muriyati, sanoat egalari, firmalar paxtani chigit bilan sotib olishga va’da berdilar. Bundan tashqari, 1880-yildan 1884-yilgacha yangi nav paxta urug‘larini ommalashgungacha bepul tarqatib turdilar. Amerika navlari ustidan olib borilgan birinchi muvaffaqiyatlari tajribalar natijasida vodiyning hamma rayonlarida qisqa vaqt ichida amerika navi ekila boshladi. Masalan, 1885-yilda 1000 desyatina, 1886-yilda 12000 desyatina, 1887-yilga kelganda 13200 desyatina yerga yangi nav paxta ekilib, 1911 yilga kelib bu ko‘rsatkich 244705 desyatina yetgan yoki viloyat miqiyosida 23 yil ichida Amerika navli paxta ekilayotgan maydonlar miqdori salkam 17,5 barobarga ortgan[6.17]. 90-yillarning oxiriga kelib upland, ko‘k chigit, king kabi paxta navlaridan 75-80 puddan hosil olna boshladi. Bu navlar sifatli bo‘lishi bilan birga vaqtida pishib yetiladi. Farg‘onadagi ba’zi rayonlar, chunonchi, Andijon uyezdining Asaka, Qorasuv, Oyim; Marg‘ilon uyezdining Quva, Yakkatut, Olatiariq; Namangan uyezdining Chust, To‘raqo‘rgon kabi volost dehqonlari yerlarga ishlov berish, texnika va o‘gitlarning progressiv metodlaridan foydalanish natijasida o‘rtacha bir desyatina yerdan 70-75 pud, alohida uchastkalardan 100-115 pud hosil ola boshladilar. 1880-1890 yillar ichida Farg‘ona viloyati bo‘yicha umumiy o‘rtacha hosil 50-55 pudga yetdi[7.144]. XIX asrning 90-yillari oxirida rus mutaxassislari madaniy o‘gitlar-superfosfat, azot, fosfordan foydalanishning progressiv metodlari va ahamiyatini mahalliy aholiga ko‘rsatib, bu sohadagi tajribalarni omma orasiga yoya boshlaydilar.

Turkiston o‘lkasida Amerikadan keltirilgan paxta navlari mahalliy sharoitlarga moslashtirilib, paxta hosildorligi ham ortib bordi. Natijada o‘lkada birin-ketin paxta tozalash zavodlari barpo qilindi. Bu davrda sanoatning eng yirik soxasi paxta tozalash sanoati bo‘lib, o‘lkadagi paxta tozalash zavodlarining ko‘pchiligi aynan Farg‘ona viloyatida joylashgan edi. Farg‘ona viloyatida paxta

tozalash zavodlarini qurilishi va faoliyati tarixi bir qator ilmiy adabiyotlarda atroflicha yoritilgan. Paxta tozalash zavodlarining egalari asosan rus va chet ellik savdogarlar va yirik yer egalari bo‘lishgan. 1881-yilda Qo‘qon shahrida birinchi paxta tozalash zavodi qurildi. Viloyat boshqarmasiga Qo‘qon uyezdi boshlig‘i nomidan taqdim etilgan 1881-1882 yillar uchun hisobotda uyezd bo‘yicha mavjud fabrika va zavodlarni soni va turlari ko‘rsatilgan. 1881-yilda Qo‘qon uyezdida 2 ta paxta tozalash va toyplash zavodi bo‘lib, paxta tolasini toyplash qo‘l kuchida amalga oshirilib, 11 nafar ishchi ishlagani holda, zavodlarni ishlab chiqarish quvvati 1300 rublni tashkil etgan. 1882-yilda esa aynan shu zavodlarda 12 ta ishchi mehnat qilib, korxonalarini ishlab chiqarish quvvati 1700 rublni tashkil etgan. Aynan shu hisobotga ko‘ra, uyezdda 1882-yildan faoliyat yurita boshlagan yana bitta paxta tozalash zavodida esa paxta tolesi gidravlik usulida toylanib, bu zavodda 32 nafar ishchi mehnat qilib, shu yili 37.583 pud paxta tolesi ishlab chiqarilgan[8.12].

Farg‘ona viloyatida paxtachilikning rivojlanishi, xususan paxta ekini maydonlarini kengayib borishi, paxta tozalash zavodlari soni ko‘payishi masalalari Turkiston o‘lkasi Dehqonchilik va Davlat mulklari boshqarmasining 7-fondi arxiv materiallarida ham keng yoritilgan[9.34]. Masalan, 1900-yilda 174000 desyatinaga paxta ekilgan bo‘lsa, 1909-yildan esa paxta maydonlari yana kengayib borib, 193063 desyatinaga amerika navli paxta, 10781 desyatinaga esa mahalliy navli paxta ekilgan. 1902-yilda Farg‘ona viloyatida jami 115 ta paxta tozalash zavodlari ishlab turgan[9.34].

Paxtachilikning o‘sishi dehqonlarning hayotini yaxshilamadi. Rus moliyaviy kapitali fermerlar va mahalliy burjuaziya orqali paxta sotib olish va sotish ishlari ustidan to‘la nazorat o‘rnatdi. Natijada paxtakor dehqon paxtani bozordagi narx qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, mahalliy boylar taklif qilgan narxdan ortiqcha sota olmas edilar. Fermerlar va boshqa ekspluatator doiralar o‘z navbatida dehqonlarga qarzni kelgusi hosil hisobiga katta foiz bilan berar edilar. Dehqonlarga kelgusi paxta hosili ustidan kredit berish - kapital jamg‘arish manbai, ekspluatatsiya

vositasigina bo‘lib qolmasdan, balki, mahalliy boy-quloqlarning yaxshi yerkarni o‘z qo‘llarida konsentratsiya qilish quroliga ham aylandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Shavkat Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2016. – 56 b.
2. O‘zbekiston tarixi. Darslik. – T.: 2005. – 534 b.
3. Рахмановна И.Ф. Фарғона водийси қишлоқларидағи ижтимоий-иктисодий муносабатлар ва маданий хаёт (XIX аср охири – XX аср биринчи чораги). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (phd) диссертацияси автореферати. Андижон – 2021. 54 б.
4. Шарафиддинов А. Фарғона вилояти тарихидан лавҳалар (XIX аср охири – XX аср бошлари). 1 китоб. Фарғона, 2013. – 76 б.
5. Мирзаев А. Мустамлака даврида Фарғонадаги сиёсий жараёнлар. //Фарғона водийси тарихи янги тадқиқотларда. Икинчи Республика илмий - анжуман материаллари. Фарғона, 2013. 244 б.
6. Шарафиддинов А. Фарғона вилояти тарихидан лавҳалар. (XIX аср охири – XX аср бошлари) I – китоб. – Т.: “Наврӯз”, 2013. – 17 б.
7. Xoshimov S.A, Rasulov B.M, Xakimov A.A. Manbashunoslik (O‘quv qo‘llanma). – T.: 2014. – 144 b.
8. Алимова Н.О. Ўзбекистонда ипакчиликнинг ахволи ва трансформация жараёни. (1865-1991 йиллар). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (Phd) диссертацияси автореферати. Тошкент–2018. – 19 б.
9. Шарафиддинов А. Фарғона вилояти тарихидан лавҳалар (XIX аср охири – XX аср бошлари). – Фарғона, 2013. – 34 б.